O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2024 - yil 25 - iyun 293-2-0-Q/24 Buxoro viloyati hokimligi

Buxoro va Kogon shaharlaridagi jamoat transporti tizimida yangi, qo‘shimcha va rag‘batlantiruvchi tariflarni joriy qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi 419-I-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 4-5-son, 124-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 37-38- son, 367-modda; 2008-y., 52-son, 513-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 18.05.2022-y., 03/22/770/0424- son, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-apreldagi 238-son “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-sonli “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofiq Buxoro va Kogon shaharlarida umumiy foydalaniladigan jamoat transportida ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish, jamoat transportida to‘lovlar shaffofligini ta’minlash, yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish va avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini rivojlantirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Buxoro viloyat Transport boshqarmasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-sonli “Jamoat transporti tizimini

isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Buxoro va Kogon shaharlarida jamoat transportidan foydalanishda yo‘lovchilar uchun qulay tariflarni joriy etish hamda elektron to‘lovlarni ommalashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan loyiha taqdimoti ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish haqini to‘lash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan doirada belgilangan tariflar bo‘yicha amalga oshirilishi qayd etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil 1-iyuldan Buxoro va Kogon shaharlarining jamoat transporti yo‘nalishlarida avtobus va yo‘nalishli taksilarda qatnovlarni amalga oshirish uchun yo‘lkira haqining quyidagi cheklangan tariflari belgilansin:

a) bir yo‘lovchi qatnovi uchun cheklangan tarif – **2 000 (ikki ming) so‘m**. Bunda bir yo‘lovchi qatnovi uchun 1 martalik to‘lov elektron to‘lov tizimi orqali amalga oshirilganda rag‘batlantiruvchi chegirma qo‘llanilgan holda – **1 600 (bir ming olti yuz) so‘m** undiriladi;

3. Quyidagilar:

qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalari 1-ilovaga;

elektron to‘lov tizimlaridan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli va bepul tarif rejalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Buxoro viloyat transport boshqarmasi (F.Rajabov) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, ikki kun muddatda qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilarni tashuvchi tegishli tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan tanlov (tender) shartnomalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

5. Viloyat hokimining 2024-yil 3-fevraldagi “Shahar yo‘lovchi tashish transportida yo‘lovchilar tashish tariflarini belgilash to‘g‘risida”gi 59-2-0-Q/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning buxoro.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror ijrosining nazorati viloyat hokimining o‘rinbosari J.Arashov hamda transport boshqarmasi boshlig‘i F.Rajabov zimmasiga yuklansin.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**

Buxoro viloyat hokimining
2024-yil 25-iyundagi
293-2-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalari

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Tarif turlari (kun)	Tarif turidagi qatnovlar soni		Tarif rejalarining narxi, so‘m
1.	“AV” avtobus, elektrobus - aholi uchun*	1	5	-	6000
		5	22	22	27000
		7	31	-	38000
		10	44	44	54000
		15	66	66	81000
		20	88	88	108000
		30	130	130	160000
		90	390	-	480000
		180	780	-	960000
		365	1582	-	1949000
2.	“N” avtobus, elektrobus - pensionerlar va nogironlar uchun**	1	5	-	3000
		5	22	22	13500
		7	31	-	19000
		10	44	44	27000
		15	66	66	40500
		20	88	88	54000
		30	130	130	80000
		90	390	-	240000
		180	780	-	480000
		365	1582	-	974500

3.	“T” avtobus, elektrobus - talabalar uchun**	1	5	-	3000
		5	22	22	13500
		7	31	-	19000
		10	44	44	27000
		15	66	66	40500
		20	88	88	54000
		30	130	130	80000
		90	390	-	240000
		180	780	-	480000
		365	1582	-	974500
4.	“O‘” avtobus, elektrobus - o‘quvchilar uchun**	1	5	-	3000
		5	22	22	13500
		7	31	-	19000
		10	44	44	27000
		15	66	66	40500
		20	88	88	54000
		30	130	130	80000
		90	390	-	240000
		180	780	-	480000
		365	1582	-	974500
5.	“B” bepul - O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq transportdan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar uchun	30	-	-	-

Izoh:

*) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: X*1600-23%;

**) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: X*1600-23%-50%, bunda:

X – transportda qatnovlar soni;

1600 so‘m – yo‘l chiptalarini hisoblash uchun qabul qilingan cheklangan tarif;

23 % - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qarori bilan to‘liq qiymatidan belgilangan chegirma miqdori;

50 % - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qarori bilan, chegirishni hisobga olgan holda, tarif rejasi qiymatidan qo‘llanadigan imtiyoz.

***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat transportini isloh qilish to‘g‘risida” 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-sonli qaroriga asosan yo‘lovchilarning shahar yo‘lovchilar transporti - avtobus va metropolitendan foydalanishlarida to‘lovlar transport kartalari orqali amalga oshirilganda almashish

TARIF REJALARINING NARXLARI*

T/r	**Tarif rejalarini nomlanishi**	**Almashish turlari**	**Tarif rejalarining narxi,** so‘m		
	1 soatlik A+A+A+A	birinchi avtobusda to‘lov	1600		
		ikkinchi avtobusda to‘lov	1000		
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	400		

Izoh:

* mazkur tarif rejalarini narxi faqat bir transport turi uchun transport kartalari orqali to'lov amalga oshirilganda qo'llaniladi

Buxoro viloyat hokimining
2024-yil 25-iyundagi
293-2-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Elektron to‘lov tizimlari (transport kartalari)dan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli tariflar

MIQDORI

T/r	Tarif rejalarining nomlanishi	To‘lov tizimi	Tarif rejalarining narxi, so‘m
1	1 soatlik A+A+A+A	birinchi avtobusda to‘lov	1600
		ikkinchi avtobusda to‘lov	1000
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	400